IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

XX ASRNING 80-YILLARIDA O'ZBEKISTONDA "O'ZBEKLAR ISHI", "PAXTA ISHI" VA UNING QASHQADARYO VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTIGA KO'RSATGAN TA'SIRI

Ziyatova Shahnozabonu

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

U.Narzullayev

Ilmiy rahbar, Navoiy davlat pedagogika institute dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 80-yillarida SSSR davlatining O'zbekiston SSRga nisbatan qo'llagan siyosiy ishi hisoblangan "paxta ishi" , "o'zbeklar ishi" va uni, O'zbekistoning asosiy paxta ishlab chiqarishdagi ahamiyati katta bo'lgan janubiy viloyati Qashqadaryodagi ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tahlili to'g'risida so'z yuritiladi. XX asrning so'nggi choragida yuz bergan "qayta qurilish"ning bir qismi bo'lgan siyosiy ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar bayonida arxiv hujjatlari, ilmiy ish va adabiyotlar tahlilidan foydalanilgan va ular ustida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xomashyo, meliorativ holat, inqiroz, "paxta ishi", kadr, T.Gdlyan, sud, javobgarlik, "Правда" gazetasi, oqlanish.

XX asrning 80-yillarida SSSR davlatida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. 1985-yilda Gorbachov tomonidan mamlakat miqyosida qayta qurish siyosati amalga oshirildi. Buning asosiy sababi esa, XX asrning so'ngi choragida Sobiq Ittifoq hududidagi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarning vujudga kelishi va ittifoqga kiruvchi respublikalar fuqarolari ongida mustaqillikka intiluvchi harakatlarning paydo bo'lishi deya baholandi.

Ta'kidlash joizki, Ittifoq bunday ozodlik harakatlari va intilishlarga toqat qila olmas edi. Ittifoq rahbarlarining fikricha, yuzaga kelgan vaziyatni oldini olish uchun butun boshli xalqni o'z domiga tortuvchi siyosiy ish amalga oshirilishi kerak edi. Aynan mana shu siyosat natijasida "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" degan uydurma paydo bo'ldi va o'zbek xalqiga nisbatan bu siyosat amalga oshirildi.

O'zbekiston SSR mamlakatning asosiy xomashyo yetkazib beruvchi bazasi ekanligi sababli, mamlakat qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotidagi vaziyat boshqa respublikalariga qaraganda ancha ziddiyatli kechdi. Yillar davomida partiyaning paxta hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etgan besh yillik rejalari tobora oshib boraverdi. Yerga faqat bir turdagi ekinning mutaasil tarzda ekilishi, yerning meliorativ holatini buzilishiga, katta miqdordagi sarf-xarajatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ammo bu xarajatlar o'zini oqlamas edi, markaz esa besh yillik planni to'ldirishni talab qilardi.[1]

Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan paxta, xomashyo tariqasida tan tarxidan bir necha barobar past narxlarda sotilib, boshqa joylarda iste'mol qiymatlariga aylanardi. Bu esa respublika iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir etardi. Shu yo'sinda O'zbekistonda "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" degan uydurma vujudga keldi. Bu ishning yaqqol ko'zga tashlangani 1981-yilga to'g'ri keladi.[2]

1984-yil XVI Plenum va O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdi qaroriga muvofiq respublikada har taraflama tajribali va yetuk kadrlar ishdan olindi.

Ming-minglab odamlar hibsga olindi. Aslida, “paxta ishi” 1983-yilda boshlangan edi. O’zbekiston Kompartiyasi MQsining XVI Plenumi va Inomjon Usmonxo’jayevning Markazdan kadrlar so’rab qilgan murojaatidan keyin ish yanada avj oldi. O’zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bular, Anishchev, Ogarok, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydan, E.Didarenko, Kalinichenko, Lyubimov, Maydanyuk, Marvin, Ivanov, Galkin, Zartashyan va boshqalardir.

“Paxta ishi” bo’yicha juda ko’p guruhlar tashkil etildi. Mahalliy aholining “xarakter va psixologiyasini” yaxshi bilgan mansabdorlar bu guruhlarga tub aholi vakillaridan prokuror va tergovchilarni bosh qildilar va ularga “yaxshi konsultatsiyalarni” berdilar. Yuqori saviyada “maslahat” olgan guruh a’zolari amaliy ishga tushib ketadilar. Ular 70-80-yillarda davlatda keng tus olgan qo’shib yozishlarni aniqlab berishlari kerak edi.

Haqiqatdan ham, ayni XX asrning 70-80-yillarida paxta va chorva sohalarida qo’shib yozishlar, davlat rejasini bajarishdagi xatoliklar mavjud bo’lib, bu millionlab so’m davlat budjetini talon-taroj qilishning ajoyib usuliga aylanib ulgurgan edi. Bunday qo’shib yozishlar O’zbekiston SSRning barcha viloyatlari miqyosida olib borilayotgan bo’lib, bu ishning tashkilotchisi aynan Moskvaning o’zi bo’lib, mamlakat, viloyat tuman rahbarlari, davlat xo’jalik direktorlari, paxta tozalash zavod va korxonalari boshliqlari bu ish bilan bevosita aloqador bo’lganlar.[3:51]

O’zbekiston janubidagi Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy tarmog’i paxtachilikka ixtisoslashtirilgan, xususan, viloyatda paxtani qayta ishlash 51 foizni tashkil etardi. Aynan shu davrdan boshlab “o’zbeklar ishi” siyosatining asorati Qashqadaryo viloyatida ham yaqqol ko’zga tashlandi. [4:530]

Birgina 1981-1983-yillarda Qashqadaryodagi ko’plab obro’-e’tibor qozongan sovxoz direktorlari, kolxoz raislari, viloyat rahbarlari, partiya a’zolari va yana bir qancha viloyat boshliqlaridan 36 kishi ishdan bo’shatib yuborildi. Ular orasida Qarshi tuman paxta tozalash zavodi direktori Tohirov, Qashqadaryo viloyati ijroiya qo’mitasi raisi B.Elboyev, O’zbekiston KP Shahrisabz qo’mitasi birinchi kotibi J.Hushnazarov, O’zbekiston KP Kitob tuman qo’mitasining kotibi Qahramon Mansurov, Kasbi tuman xalq kontroli qo’mitasi raisi Z.Arobov , Shahrisabzlik kolxoz raislari A.Turopov, Qurbonov, Suvonov, sovxoz direktori N.Sharapov va boshqalar bor edi.[5:48]

1982-yil 29-iyulda Talimarjon tuman 2-sovxoz direktori Mars Sharopov ustidan tergov ishi boshlandi. Ushbu ishda 41 kishi ustidan ish ko’rildi. M.Sharopov , A.To’liyev, M.Do’stov va K.Normatovlarning ishi sudda ko’rilguncha qamoqda saqlangan. Ish 1984-yil 23-iyulda Qashqadaryo viloyat sudida ko’rib chiqildi. Jazo chorasi sifatida M.Sharopov 15 yil, A.To’rayev 12 yil, B.Xidirov 13 yil, M.Rustov 15 yil, A.To’rayev 12 yil, R.To’raqulov 4 yil, Sh.Alimov 3 yil, K.Normatov 3 yil, S.Jovliyev 3 yil, T.Hamdamov 3 yil, Y. Jalilov 3 yil, N. Holikov 2 yilga ozodlikdan mahrum etildi. Qolgan kolxoz xodimlari ham turli muddatlarga qamaldi.[6]

“Paxta ishi” respublika bo’ylab tobora avj ola boshladi. Yuzlab o’zbek xonadonlari aynan shu davrda ko’plab yo’qotishlarga uchradi. Boquvchisiz qolgan oilalarda endi ro’zg’or tebratish ayollar zimmasida edi.

“...O’sha suronli va taxlikali yillarda ayniqsa Qashqadaryo ayollarining chidamliligi, matonat va jasorati albatta tahsinga sazovor bo’ldi..

Aynan ana shunday ayollarning irodasi, mehr va muhabbati bilan Qashqadaryo zaminidagi minglab

ro’zg’orlar buzilmasdan, o’rtadagi ishonchga putur yetmasdan ko’plab oilalar saqlab qolindi.” [7:5]

Umuman olganda, “o’zbeklar ishi” natijasida 22000ga yaqin kishi hisga olindi, 4018 kishi jinoiy javobgarlikka tortildi.1989-yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirildi. 1984-1989-yillar davomida T.Gdlyan guruhi tomonidan 800dan ko’proq “jinoiy” ish ko’rib chiqildi. Jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo’lgan. O’zbekiston SSR paxta tozalash sanoat vaziri V.Usmonovga esa 1986-yilda o’lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan.[8:198]

Gdlyanchilar guruhi O’zbekistonda “hamma pora oladi va hamma pora beradi” deb hisoblar edilar. Har bir kishi axborot manbayi hisoblanganliklari uchun ulardan mana shu axborotlarni sug’urib olishga harakat qildilar. Ko’plab begunoh fuqarolarni tergov qilish, hibsda saqlash, ularni aybsiz aybdorlarga aylantirish odatiy tusga kirdi. O’ta ketgan darajada tubanlikka yo’l qo’yilgandi, hatto butun bir xalqni jinoyatchilar deb e’lon qildilar.[9:9]

Aynan mana shunday murakkab bir vaziyatda mamlakat hududida nashrdan chiqqan dolg’ali va haqoratli turmush ufurib turgan gazetalardagi maqolalarni yodga olmaslikning iloji yo’q.

“Sovet O’zbekistoni” gazetasining 1988-yil 23-24-yanvar sonlarida “Правда” gazetasidan tarjima qilingan “Sirli saltanat” va “Oltinga hirs qo’ygan gazandalar” maqolalarini ketma-ket chop etadilar. “Правда”ning maxsus muhbirlari G.Ovcharenko va A.Chernenko gazetaning 1988-yil 17-iyul sonida “Kollonna”, 30-avgust sonida esa “ Kuyov va uning hamtovoqlari” maqolalarini e’lon qiladi. G.Ovcharenko “Правда” gazetasining 1988-yil 3-noyabr sonida “Qonun mantig’i qat’iydir” maqolasi bilan chiqadi. V.Artemenkoning “Правда” gazetasida 1988-yil 12-sentabr sonida chiqqan “O’zgarishlar hashar yo’li bilan” maqolasi “Qishloq haqiqati” gazetasida ham e’lon qilingan .

Bu misollar dengizdan tomchi xolos. Bir so’z bilan aytganda, Markaziy matbuot, xususan, “Правда” Gdlyan boshliq guruhning minbari bo’lgan deyishga asoslar bisyor.

G.Ovcharenko “Oltinga hirs qo’ygan gazandalar” maqolasida yozilishicha, “SSSR Bosh prokurori huzuridagi o’ta muhim ishlar bo’yicha tergovchi Gdlyanga 1983-yil yozida gruppani yig’ish va Buxoroga uchish topshirildi. Bu yerda minglab so’m porani olayotganda oblast ichki ishlar boshqarmasi OBXSS boshlig’i militsiya podpolkovnigi A. Muzaffarov Davlat xavfsizlik komiteti xodimlari tomonidan ushlangan edi”.

Quyida nomlari sanab o’tilgan gazetalarning bosib chiqargan maqolalarida O’zbekistonda tarmoq otib ketgan mafiya, reket, yonlanma qotillar mavjudligi, ularning “ma’naviy rahbarlari” borligi haqida so’z yuritiladi. Bu maqolalar mavzusi ulardagi ruh va so’zlari o’zbek o’quvchisiga tanish emas edi. Buning ustiga rostmi-yolg’onmi muxbir Gdlyanga O’zbekistonda suiqasd qilmoqchi bo’lishdi degan ma’noni ham ilgari suradi. KPSS Markaziy Komitetining nashri bo’lgan “Правда” gazetasida chiqqan bu gaplarga ishonmay bo’ladimi o’sha paytda? Buning ustiga, SSSRning barcha tele va radio kanallarida “o’zbek mafiyasi” aks etgan lavhalar tinimsiz aylanib yotgan bo’lsa. Mavjlanib-mavjlanib, to’lqinlanib-to’lqinlanib kelayotgan fitnaning oxiri 5 oy emas, 1 yil emas, 5 yil davomida ham ko’rinmasa.[10]

Xulosa qilib aytganda “paxta ishi”, “o’zbeklar ishi” SSSRda inqiroz kuchaygan bir paytda markazning siyosiy o’yinlaridan biri bo’ldi xolos. Bunday siyosiy uydurma

o’zbek xalqining jumladan, uning janubiy viloyatlari aholisi uchun ham moddiy va ma’naviy yo’qotishlarga sabab bo’ldi.

Bu jinoiy guruh kirdikorlari va ulardan aziyat chekkanlar haqida mustaqillik yillarida huquqshunos Viktor Ilyuxin “Qabohat yoxut... ”o’zbeklar ishi” degan uydurma xususida” hujjatli essesi, yozuvchi Isfandiyorxonning “Inqiroz yoxud generallar o’yini” romani, huquqshunos Toshtemir Qahramonov “Iblis iskanjasida 1643 kun” nomli hujjatli romani va boshqa bir qator o’nlab maqola va suhbatlar e’lon qilindi.

Nohaq ayblangan kishilarning aybsizlizligi isbotlanib, mustabid tuzumzulmiga bardosh berib, sog’-omon qolganlar o’z oilalari bag’riga qaytdi. Azoblarga chiday olmay vafot etganlar xotirasi oqlanib, farzandlari oldida pok nomlari qayta tiklandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Doniyev S.I. XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar. Magistr akademik darajasini olish uchun dissertatsiya
2. Yunusova X.E. O’zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. Toshkent. Zar qalam.2005
3. Xakimov I. Qo’shib yozish – jinoyat. O’zbekiston qishloq xo’jaligi. Tashkent. 1989. B-51
4. O’zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent.Sharq nashriyoti. 2000. B.530
5. QVDA ning Qarshi filiali, 1-jamg’arma, 28-ro’yxat, 5-ish, 48-varaq
6. Qahqadaryo viloyati sudi arxivi – 5-6 varaq
7. I.A.Karimov. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli. Toshlent. O’zbekiston.2001. B.5
8. Yunusova X.E. XX asrning 80-yillarida O’zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar va ma’naviy hayot.Tarix fan Doktor ilmiy darajani olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2009. B.197-198.
9. Ilyuxin . V. Qabohat yohud... Toshkent. O’zbekiston. 1993. B.9
10. Toshboyev.O. Qo’li qotil soldi mast.... Yana o’sha mash’um “paxta ishi” . Publististik maqola. 2018